



Amerika Qo'shma Shtatlarining yangi Prezidenti Jozef Robinett Bayden imzosining psixografologik tahlili





Amerika Qo'shma Shtatlarining naubatdagi prezidentik saylovlarda g'olib chiqqan Jo Bayden imzoning Psixografologik tahlili:

Jo bayden tabiatan moslashuvchan xarakterga ega. Psixologiyada bunday psixologik tip shaxs optimist va pessimist o'rtasida me'yorlashgan xulqqa ega bo'lganda namoyon bo'ladi. Bunday xarakterga ega odamlar faoliyatiga atrofdagilarning fikri katta ta'sir ko'rsatadi va ular doim maslahatlashib olishni maqul ko'radilar. Jo Bayden vaziyatga qarab ish qiladigan, shoshqaloqlikni yomon ko'radigan, ishning mazmun-mohiyatiga chuqur yondasha oladigan, yetarlicha qaysar va shu bilan birga ziqna xarakterga ega. Tibbiyot nuqtai nazaridan ko'proq asab tizimi va buyrak faoliyatlarida og'riqlar uchraydi.

Jo Bayden imzosidagi belgilarga ko'ra aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan afzal ko'rishini bilib olish mumkin. To'g'ri siz uni bo'lajak AQSh prezidenti bo'lgandan so'ng **"Aqliy mehnatni" afzal ko'radi deyishingiz mumkin.** Lekin Grafologik qonuniyatlarga ko'ra imzoda boshida "bosh harflar, ya'ni katta harflar ikki yoki undan ko'p bo'lishi, imzoning ikkinchi qismida hech qanday katta harflar bo'lmasa" ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, imzo egasini **aqliy**



*mehnatni afzal ko'radi* deb aytish mumkin. Odatdagidek bunday imzo egalari turli kasb yo'nalishidagi mansabdorlar hisoblanadi. Grafologiyadagi ushbu qonuniyat AQShlik insonga ham, Angliyaliklarga ham, Rossiyaliklarga yoki O'zbekistonlik insonlar imzosiga ham birdek amal qiladi.

Jo Bayden imzosining tahlillariga asoslanib uni inijligi va atrofidagi turgan insonlarga yuqori talab qo'yishini takidlash mumkin. Uning imzo qo'yishdagi tezligi va imzoni hujjatdagi qulay joyga qo'yishi **Grafologlarni** diqqatini tortishi tabiiy. Izmosidagi aniqlangan xususiyatlarga tayanib unda **Xolerik temperamenti** dominantlik qilishini aniqlandi. Jo Baydenni Grafologik tahlil uchun ko'plab nusxada imzolarini to'plashga muvaffaq bo'lmadik. Lekin grafologik tahlilga asoslanib uning imzosidagi qo'shimcha belgini aytish ham mumkin. U hujjatlarni imzolashda bazan imzo ustidan chizib qo'yishi ham mumkin.

Uning imzosi va yozuvidagi qo'shimcha belgilari: o'zgaruvchan bosim, rangi va qalinligi o'zgarishi, katta harflarda ifodalangan yozuv va keng oralikli harflarga asoslanib "Uni jinsiy hayotga qiziqishining yuqori ekanligiga, tasavvurlarning boyligi, his-tuyg'uga berilganligini" aytishimiz mumkin. Bunday insonlarning asab va qon-tomirlar tizimi o'zgaruvchan bo'ladi.



*Jo Baydenning imzosining tahliliga asosan Astenik ko'rinishdagi tana tuzilishiga ega. Erkaklardagi astenika umumiy taasurotlarga ko'ra asosan ularni semirmasliklarida va bo'yiga o'sishlarida namoyon bo'ladi.*

*Grafologik qoidalarga asosan imzodagi "Ancha qora va yo'g'on chiziqlar" - atrofidagilar va faol kishilarga qiziqishini namoyon etuvchi serg'ayrat odamga tegishli ekanligini bildiradi. Jo Bayden imzosida ham shunday belgilar mavjud. Tahlil xulosalariga ko'ra uning uchun hayotning moddiy tarafiga ko'ngil qo'yish xosdir. Ishq - muxabbat bobida bunday odamlar kuchli ehtirosni namoyon etadilar. Odatda bunday imzo egalari uyatchanligi bilan ajralib turmaydilar. Bunday imzo egasini ekstrouvert deb atash mumkin. Lekin introvert deb atab bo'lmaydi. Ular odamlar bilan muomila qilishni yoqtiradi. Umidsizlik uni tushkunliga tushushiga aslo yo'l qo'ymaydi. Ular oldinga qarab ketaveradi. Bundan tashqari, muvaffaqiyatsizlik ularni faqatgina faollikka yetaklashi mumkin. Bunday imzo egalari uzil-kesil javob uchun «yo'q» deb birdan aytmaydi.*

*Jo Bayden imzo namunalarda bazilarida kuzatilgan yengil bosim kuchli bosib yozilgan imzo va yozuv bilan birikishi undagi seruwchanlik va idealizm yuqori ekanligini namoyon etadi. Shu bilan birga ba'zan unda chidamsizlik paydo bo'lishini va ruhiyatida*



kutilmagan portlashlar ro'y berishi aniqladik. Jo Baydenning xarakter xususiyatlarida tejamkorlik, puxtalik, fikrini bir joyga to'play olishi asosan boshlagan ishining ikkinchi qismida namoyon bo'ladi.

Jo Bayden biror ishga kirishsa - ish boshida talabchan, qaysar, ko'p buruq beruvchi, o'zini boshqalardan ustun qo'yadigan va ko'p tanqid qiluvchi inson sifatida taasurot qoldiradi. *Lekin* ishni ikkinchi yarmiga o'tgandan so'ng, **qo'l ostidagilarga mehribon, yumushoqko'ngillik bilan muomala qiluvchi va o'zini bosiq xarakterli inson sifatida namoyon eta boshlaydi.**

*Uning imzosida uzilishlarning bo'lishi hayotda moslashuvchan, aqlan tetik hamda istaklarini ro'yobga oshirishni biladigan inson ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Jo Bayden biror bir maqsadga erishmoqchi bo'lsa o'zini turli hil qiyofalarda namoyon etishi mumkin.* Artistik qobiliyati yaxshi rivojlangan.

Jo Baydenni "taktik" ya'ni fikri aniq bir faoliyatga yo'naltirilgan inson deyish mumkin. Bu xulosalarimizni Grafologik qonuniyatlardan tashqari uning faoliyatini kuzatish orqali ham iqror bo'lishimiz mumkin.

Jo Baydenning xarakter-hususiyatlaridagi nozik nuqtalari uning biror faoliyat oldidan ishni juda uzoq rejalashtirishi, biror ishga



hissiyotlarga tayanib qo'l urishi va ish faoliyatini boshlaganidan so'ng uni o'rta qismiga kelganda atrofdagilar fikriga bog'lanib qolishi hamda ish faoliyatini bajarishda tanaffus qilishidadir.

Jo Bayden o'z tabiatiga muvofiq tarzda o'zini va atrofdagilar hayotini osonlashtirishga harakat qiladi. Uning imzosidagi belgilardan uni yaratuvchanlikka moyillik, hayotga yangilik kiritishni xohlovchi, romantikaga berilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday imzo egalari ko'proq his-tuyg'ulari tufayli psixologik tushkunlikka tushishlari mumkin. Jo Baydenning hayoti ham bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Jo Baydenni so'ngi davrlardagi imzolarida **xarakter jihatdan muvozanatlashganligini, boshqa insonlarni tushunish qobiliyati yuqorilab kamunikabellik sifatlari ortganini** payqash mumkin. Sog'ligi borasida yurak, asab tizimi hamda buxoq, o'pka, o't pufagi kasalliklaridan aziyat chekishni boshlagan bo'lishi mumkin.

Imzo inson ichki dunyosini aks ettiruvchi faktorlardan biri hisoblanadi, tabiiyki ichki dunyoning o'zgarishi, ruhan o'sish va inson hayotidagi boshqa o'zgarishlar imzoning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Jo Baydenning izmosini tahlili xulosariga asoslanib uning siyosiy kareyerasini kelgusi 4 yili haqida pragnoz qilish mumkin. Uni



*ishga qobiliyati, kuch-quvvati, qiziqishi va boshqa xususiyatlari faoliyati so'ngiga borib pasayib borishini kuzatish mumkin bo'ladi.*

*Grafologik tahlil xulosalariga asoslanib shuni aytish mumkinki Jo Bayden prezidentlik faoliyatida o'zini "BREND" sifatida namoyon qiladi. Barcha soxalarda kutimagan qarorlari bilan "DUNYO SIYOSATIDA" kutilmagan burilishlar yasaydi. Faoliyatining boshida avval keskin, so'ng esa mo'tadil siyosat yuritadi. U o'zidan yaxshi nom qoldirish uchun nima talab qilinsa shularni bajarishga intiladi. Demak AQSh - Rossiya va Xitoy bilan murosasiga yo'liga o'tishi mumkin.*

*Jo Bayden o'z faoliyatida oilaviy an'analarini namoyon etadi. O'zining Prezidentlik vazifasini bajarishda muvaffaqiyatiga erishish uchun o'z sog'ligiga yetarlicha e'tibor ajratmaydi. Sog'ligi borasida yuqorida sanab o'tilgan jixatlarga ko'proq e'tibor berishi lozim bo'ladi.*

*Farg'ona Profayling Maktabi rasmiy kanali uchun maxsus.  
Baxromjon Sharofitdinovich Butayev - Psixolog, Profayler, Grafolog.*